

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI**

Saidova Farogat Ashuraliyevna
Surxondaryo sariosiyo 22- maktab
Boshlangich sinf oqituvchisi

Annotatsiya: *Maqola boshlang'ich ta'linda pedagogik texnologiyani o'rni, afzalligi va samarasiga bag'ishlangan. Bunda o'quvchilarni ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishini o'zbek tilidagi misollar asosida taqdim etgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, o'quvchi.*

Eng muhim va dolzarb masalalardan biri-yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlargi, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Shavkat Mirziyoyev

Ta'lim tarbiya shaxs kamolotining asosi bo'lsa, boshlang'ich ta 'lim uzlusiz ta 'lim uchun poydevordir.

Taraqqiyot ta'lim sohasiga o'z talablarini qo'ydi, uning muntazam takomillashib borishiga sabab bo'ldi. Jumladan, uzlusiz ta'limning uzviy bo'lagi hisoblanmish boshlang'ich talimdagi yangilanishlar ham tabiiy holdir. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijodiy munosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlashi, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilishi yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallahashdir. Aytish joizki, sog'lom va barkamol dunyo qarashi keng, tafakkuri teran yosh avlodni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda, bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan davrda o'qituvchining zamonaviy texnologiyalarni talim jarayoniga o'z o'rnida tadbiq eta olishi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi pedagogning mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchi darsga pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan jarayonni amalga oshirsa o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, o'quvchilarning ijodkorligi ortib boraveradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'limning interfaol usullari ta'lim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, o'qituvchining erkin va majburiyatsizligini, eng asosiysi, o'quvchi uchun o'ta qizqarligi va samaradorligini ta'minlab bera oladi.

Pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini majburiy grafika mashg'ulotlari jarayonini beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, o'quvchini biroz bo'lsada fikr yuritishda o'z fikrini boshqa o'quvchiga aytishga, umuman, sinf xonasida kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik suhabatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyatidan kelib chiqib quyidagi mezonlarga rioya qilsa, yaxshi natijalar beradi:

- ishtirokchilarning tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar;
- ishtirokchilarning soni bo'yicha yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o'yinlar;
- o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;
- vaqt me'yorি bo'yicha - dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishdagi asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bugun boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga qiziqish ortgan.

Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin.

- 1.Dars taqdimotini tayyorlash.
- 2.Internet resurslari bilan ishslash.
- 3.Tayyor o'rgatuvchi vositalardan foydalanish.

Boshlang'ich ta'limda multimedia taqdimotini tayyorlash o'qiv materialini tayyorlashning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Taqdimot o'quvchiga darsgayuqori samaradorlikka erishishga sinfning tayyorgarlik holati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv materialni mustaqil saralash imkonini beradi.Bu jarayonda o'qituvchi, o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etadi.yangi materialni jadallik bilan yetkaza oladi.Axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko'mcigidci boshqara oladi.

1. Maqol.
2. Mazmunli, mänoli.
- 3.Undaydi, tarbiyalaydi,chorlaydi.
4. Maqol- xalq og'zaki ijodidir
5. Naql

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda interfaol metodlarni qo'llash ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natejalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.Dars maboynidan ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish,unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. "O'z guruwingni top" mashqi O'quvchilarga rangli buklangan qog'ozlar tarqatiladi.

Ularga hayvonlar va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda nomi yozilgan bo'ladi.O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib o'z guruhini topishi lozimligini tushuntiradi.

Masalan:

- 1.Xo'roz(qu-qu-),
- 2.Mushuk (miyov-miyov),
- 3.Kuchuk(vov-vov).

Bu metod va usullardan dars jarayonida qo'llash o'quvchida kommunikativ qobilyatlarini oshirishga va ular asosida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

o'quv jarayoning jonli o'tishini ta'minlaydi;

o'quvchilar faolligini yanada oshiradi;

darslarning ko 'rgazmaliligi ta'minlanadi;

O'quvchilar bevosita ta'lim jarayonining ishtirokchisiga aylanadi; dars audiovizual tarzda tashkil etiladi;

o'quvchilarning mavzular bo 'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni egallashi osonlashadi; o'quvchilarda mavzuga oid tayanch va xususiy kompetensiyalari shakllanadi;

o'qituvchi oz kuch sarflab ko 'p natijaga erishadi.

Xulosa

Biz ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni joriy etadigan bo'lsak, pedagogik texnologiyalar asosida bilim berilib, shaxs shakllantiriladi, shuning uchun uni faqat ta'limga emas, bevosita ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda qo'llash ham muhimdir. Xulosa qilib, biz ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni joriy etadigan bo'lsak, pedagogik texnologiyalar asosida bilim berilib, shaxs shakllantiriladi, shuning uchun uni faqat ta'limga emas, bevosita ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda qo'llash ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.; Ma'naviyat 2008y.
2. Umumta'lim fanlari metodikasi - 2018y.
3. Boshlang'ich ta'lim-2019y.
4. Oilada bolalarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar-Inomova-Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fan[^] akademiyasi "Fan" nashifyoti 1995y.